

WOMEN'S VIRTUE AND SOCIAL ROLE IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI AND JANE AUSTEN

Abdumajidova Zarnigor Shuxrat qizi

Student, Foreign Language and Literature: English Language Program Faculty of
Applied Sciences Tashkent State University of Oriental Studies

ABSTRACT

This article provides a comparative analysis of women's virtues and their role in society in the works of Alisher Navoi and Jane Austen. In Navoi's works, women are predominantly portrayed as symbols of spiritual purity, loyalty, and chastity, whereas in Jane Austen's works, emphasis is placed on women's intelligence, independent thinking, and social status. The article reveals similarities and differences in the representation of female characters in the works of both authors and offers general conclusions about the important role of women in societal development.

KEYWORDS

Alisher Navoi, Jane Austen, moral qualities, independent thinking, human perfection.

NAVOIY VA JANE AUSTEN ASARLARIDA AYOL FAZILATI VA JAMIYATDAGI O'RNI

ABDUMAJIDOVA ZARNIGOR SHUXRAT QIZI

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti Amaliy Fanlar

Fakulteti, Xorijiy Til Va Adabiyoti: Ingliz Tili Yo'nalishi Talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Alisher Navoiy va Jane Austen asarlarida ayol fazilatlari hamda uning jamiyatdagi o'rni qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Navoiy ijodida ayol ko'proq ma'naviy poklik, sadoqat va iffat timsoli sifatida tasvirlansa, Jane Austen asarlarida ayolning aql-zakovati, mustaqil fikrlashi va ijtimoiy mavqei yoritiladi. Maqolada har ikki adib ijodidagi ayol obrazlarining o'xshash va farqli jihatlari ochib berilib, ayolning jamiyat taraqqiyotidagi muhim o'rni haqida umumiy xulosalar beriladi.

KALIT SO'ZLAR: Alisher Navoiy, Jane Austen, axloqiy fazilatlar, mustaqil fikrlash, insoniy kamolot

АННОТАЦИЯ: В данной статье проводится сравнительный анализ женских качеств и их роли в обществе в произведениях Алишера Навои и Джейн Остин. В творчестве Навои женщина чаще изображается как символ духовной чистоты, верности и целомудрия, тогда как в произведениях Джейн Остин раскрываются интеллект женщины, её независимое мышление и социальный статус. В статье выявляются сходства и различия женских образов в творчестве обоих авторов, а также делаются общие выводы о важной роли женщины в развитии общества.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Алишер Навои, Джейн Остин, нравственные качества, независимое мышление, человеческое совершенство.

Kirish

Ayol jamiyatning ma'naviy va ijtimoiy taraqqiyotida muhim o'rin tutuvchi shaxs hisoblanadi. U nafaqat oilaning tayanchi va farzandlar tarbiyachisi, balki jamiyatning ma'naviy qiyofasini shakllantiruvchi asosiy omillardan biridir. Shu bois ayolning fazilatlarini, uning oiladagi va jamiyatdagi o'rni masalasi jahon adabiyotida doimo dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelgan.

Sharq va G'arb adabiyoti namoyandalari o'z asarlarida ayol obrazini turli jihatlaridan tasvirlaganlar. Xususan, buyuk o'zbek mutafakkiri Alisher Navoiy hamda ingliz adabiyotining mashhur vakili Jane Austen ijodida ayolning ma'naviy fazilatlarini, aql-zakovati, sadoqati va jamiyatdagi mavqei alohida o'rin tutadi. Ularning asarlarida yaratilgan ayol obrazlari o'z davrining ijtimoiy-madaniy qarashlarini aks ettirish bilan birga, bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan.

Navoiy o'z asarlarida ayollarni asosan poklik, vafo, iffat va ma'naviy komillik timsoli sifatida aks ettirsa, Jane Austen o'zining ijodida ayolning mustaqil fikrlashi, aql-zakovati

va shaxsiy tanlov huquqiga ega shaxs sifatida yoritib beradi. Har ikki si ham ayolning jamiyatdagi oʻrni va ahamiyatini turli nuqtayi nazardan ochib berishga harakat qilgan. Mazkur maqolaning maqsadi Alisher Navoiy va Jane Austen asarlarida aks etgan ayol fazilatlari hamda ularning jamiyatdagi oʻrnini qiyosiy tahlil qilish, ikki adibning ayol obraziga boʻlgan qarashlaridagi oʻxshash va farqli jihatlarni aniqlashdan iborat. Ushbu tahlil orqali Sharq va Gʻarb adabiyotida ayol obrazining badiiy talqini hamda uning ma'naviy-ijtimoiy ahamiyatini chuqurroq anglash mumkin boʻladi. Dastlab Alisher Navoiy asarlaridagi ayollar fazilati tahlillari bilan tanishamiz.

Alisher Navoiy asarlarida ayol fazilati va jamiyatdagi oʻrni

Alisher Navoiy nazarida jamiyat taraqqiyoti va oilaviy baxt-saodat ayolning tarbiyasi, odobi va ma'naviy yetukligi bilan chambarchas bogʻliqdir. Navoiy dostonlarida yaratilgan ayol obrazlari oʻzining mustahkam irodasi, donoligi va vafodorligi bilan ajralib turadi. Xususan, Shirin obrazi Navoiy tomonidan nafaqat goʻzal, balki aqlli, tadbirli va davlat boshqaruvi masalalarida ham faol ishtirok etuvchi ayol sifatida tasvirlangan. U oʻz sevgisiga sodiq qoladi, murakkab vaziyatlarda oqilona qaror qabul qila oladi va oʻz xalqining manfaatlarini himoya qilishga intiladi. Bu orqali Navoiy ayolning jamiyat hayotidagi muhim oʻrnini koʻrsatadi. Shuningdek, Layli obrazi ham Sharq ayoliga xos boʻlgan hayo, iffat, sadoqat va sabr timsoli sifatida tasvirlanadi. Laylining Majnunga boʻlgan muhabbati chin insoniy tuygʻularning yorqin namunasi boʻlib, uning sadoqati va matonati asar davomida yaqqol namoyon boʻladi. Navoiy Layli obrazi orqali ayolning ruhiy goʻzalligi tashqi goʻzallikdan ustun ekanligini ta'kidlaydi. Navoiy asarlarida ayol oilaning ma'naviy tayanchi va yosh avlod tarbiyachisi sifatida ham tasvirlanadi. Shoir ayolning odobi, bilimi va ma'naviyati jamiyatning kelajagini belgilovchi omillardan biri ekanligini uqtiradi. Shu sababli uning asarlarida ayolga nisbatan yuksak hurmat va ehtirom hissi sezilib turadi. Alisher Navoiy ijodida ayol obrazi ma'naviy komillik va sadoqat kabi fazilatlarni jamlagan ayol sifatida

namoyon bo'lad. Bu obrazlar orqali shoir ayolning oiladagi va jamiyatdagi beqiyos o'rnini yuksak baholaydi. Alisher Navoiy asarlaridagi

Jane Austen asarlarida ayol fazilati va uning o'rne

Jane Austen ingliz adabiyotida ayol ruhiyati va uning jamiyatdagi mavqeini chuqur tasvirlagan yozuvchilardan biridir. Uning asarlarida ayollar faqat muhabbat yoki oilaviy munosabatlar doirasida emas, balki mustaqil fikrlovchi, o'z qarashlari va hayotiy tamoyillariga ega shaxslar sifatida namoyon bo'lad. Austen yashagan davrda ayollarning ijtimoiy imkoniyatlari cheklangan bo'lsa-da, u o'z qahramonlari orqali ayolning aql-zakovati, ma'naviyati va shaxsiy qadr-qimmatini ulug'laydi. Yozuvchining romanlarida ayol fazilatlarini sifatida aql-idrok, odob, sabr-toqat, samimiylik va mustaqil fikrlash alohida o'rin egallaydi. Masalan, "Pride and Prejudice" asaridagi Elizabeth Bennet obrazi o'zining zukkoligi, keng dunyoqarashi va qat'iy xarakteri bilan ajralib turadi. U jamiyat tomonidan qabul qilingan ayrim qarashlarga tanqidiy yondashadi va hayotiy qarorlarini o'zi qabul qilishga intiladi. Elizabeth obrazi orqali Austen ayolning baxti uning erkin tanlovi va o'ziga bo'lgan hurmati bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Austenning "Sense and Sensibility" asarida esa Elinor Dashwood obrazi orqali vazminlik, mas'uliyat va donolik kabi fazilatlar yoritiladi. Elinor qiyin vaziyatlarda ham hissiyotlarini nazorat qila oladi, oilasi manfaatlarini o'ylaydi va oqilona qarorlar qabul qiladi. Bu obraz ayolning ichki kuchi va ma'naviy yetukligini namoyon etadi.

Jane Austen asarlarida ayolning jamiyatdagi o'rne uning ijtimoiy mavqei bilan emas, balki shaxsiy fazilatlarini bilan belgilanadi. U ayollarning ta'lim olishi, fikr bildirish huquqiga ega bo'lishi va hayotiy tanlovlarni mustaqil amalga oshirishi zarurligini ta'kidlaydi. Shu jihatdan uning asarlari o'z davri uchun ilg'or g'oyalarni ilgari surgan. Jane Austen ijodida ayol obrazi aql-zakovatli, ma'naviy yetuk va o'z qadr-

qimmatini anglaydigan shaxs sifatida tasvirlanadi. Bu obrazlar orqali yozuvchi ayolning jamiyat taraqqiyoti va insoniy munosabatlardagi muhim o'rnini ochib beradi.

Navoiy va Jane Austen asarlarida ayol obrazlarining o'xshash jihatlari

Alisher Navoiy va Jane Austen turli davr va madaniy muhit vakillari bo'lsalar ham ularning asarlarida ayol obrazini tasvirlashda bir qator o'xshash jihatlari ham mavjud ekan. Har ikkisi ham ayolni jamiyatning muhim a'zosi, oilaning ma'naviy tayanchi va yuksak insoniy fazilatlar egasi sifatida yoritib beradi. Navoiy ham, Austen ham ayolning tashqi go'zalligidan ko'ra ichki go'zalligi va ma'naviy kamolotiga ko'proq e'tibor qaratadilar. Ularning asarlaridagi ayol qahramonlar odobli, aqlli, sadoqatli va ezgu fazilatlar bilan ajralib turadi. Masalan, Navoiyning Shirin va Layli obrazlari hamda Austinning Elizabeth Bennet va Elinor Dashwood obrazlari o'zlarining ma'naviy yetukligi bilan o'quvchi e'tiborini tortadi. Yana bir o'xshash tomoni shundaki, har ikki yozuvchi ayollarning sadoqati va vafodorligini ulug'laydi. Navoiy qahramonlari sevgiga va va'daga sodiq qolishlari bilan ajralib tursa, Austen qahramonlari ham insoniy munosabatlarda samimiylilik va halollikni qadrlaydilar.

Navoiy va Jane Austen asarlarida ayol obrazlarining farqli jihatlari

Alisher Navoiy va Jane Austen asarlarida ayol obrazlari yuksak fazilatlar egasi sifatida tasvirlansa-da, ularning qarashlarida davr, madaniyat va ijtimoiy muhit ta'sirida yuzaga kelgan muhim farqlar ham mavjud. Bu farqlar ayolning jamiyatdagi o'rni, huquqlari va shaxsiy erkinligiga bo'lgan munosabatda yaqqol namoyon bo'ladi. Navoiy asarlarida ayol ko'proq ideal obraz sifatida tasvirlanadi. Navoiy yaratgan Shirin va Layli obrazlari Sharqona odob-axloq va insoniy fazilatlarining timsoli sifatida gavdalanadi. Jane Austen asarlarida esa ayol obrazi hayotiy va realistik tarzda tasvirlanadi. Uning qahramonlari jamiyatdagi mavjud muammolar, ijtimoiy tengsizlik va ayollarning cheklangan imkoniyatlari bilan yuzma-yuz keladilar. Austen ayollarning mustaqil fikrlashi, o'z hayoti va kelajagini tanlash huquqiga ega bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Uning

qahramonlari nafaqat aqlli, balki o'z manfaatlarini himoya qila oladigan shaxslar sifatida namoyon bo'ladi. Navoiy asarlarida ayolning ma'naviy go'zalligi va sadoqati markaziy o'rinni egallasa, Austen asarlarida ayolning shaxsiy erkinligi, ta'lim olishi va jamiyatdagi faol ishtiroki ko'proq yoritiladi. Navoiy ayol obrazini ideal darajaga ko'tarsa, Austen uni real hayotdagi muammolari va orzulari bilan birga tasvirlaydi. Navoiy va Jane Austen asarlaridagi ayol obrazlari umumiy insoniy fazilatlar bilan birlashsa-da, ularning talqinida Sharq va G'arb madaniyatiga xos qarashlar, davr ruhiyati va ijtimoiy muhitning o'ziga xos ta'siri yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu jihatdan har ikki adibning ayol haqidagi qarashlari adabiyot va jamiyat taraqqiyotini o'rganishda muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, Navoiy va Jane Austen asarlarida ayol jamiyatning ma'naviy va ijtimoiy hayotida muhim o'rin egallovchi shaxs sifatida talqin qilinadi. Ularning asarlarida ilgari surilgan g'oyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan bo'lib, ayolning jamiyat taraqqiyotidagi beqiyos rolini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa

Alisher Navoiy va Jane Austen ijodida ayol obrazi yuksak insoniy fazilatlar sohibasi sifatida tasvirlangan. Har ikki adib turli davr va madaniy muhit vakillari bo'lishlariga qaramay, ayolning ma'naviy kamoloti, aql-zakovati, sadoqati va jamiyat hayotidagi muhim o'rnini e'tirof etadi. Ularning asarlarida ayol nafaqat oilaning tayanchi, balki jamiyat taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Qiyosiy tahlil Alisher Navoiy asarlarida ham, Jane Austen asarlarida ham ayolning tashqi go'zalligidan ko'ra uning ichki dunyosi, ma'naviy boyligi va axloqiy fazilatlarini yetakchilik qilishini ko'rsatadi. Ular yaratgan ayol obrazlari o'quvchini ezgulikka, odob-axloqqa, sadoqatga va insoniylikka chorlaydi. Shu bilan birga, bu obrazlar ayolning jamiyatdagi o'rnini va mavqegini anglashda muhim badiiy manba hisoblanadi. Navoiy va Jane Austen asarlarida ayol obrazi insoniy fazilatlarining yorqin timsoli sifatida gavdalanib, bugungi kunda ham o'z tarbiyaviy va ma'rifiy ahamiyatini

yo‘qotmagan. Ularning asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar zamonaviy jamiyatda ayolning o‘rni, huquqlari va ma‘naviy qadr-qimmatini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Shu jihatdan mazkur adiblar merosi nafaqat adabiy, balki ijtimoiy va ma‘naviy ahamiyatga ham egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Alisher Navoiy. “Xamsa” (beshlik dostonlar to‘plami). Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot.
- 2.Jane Austen. Pride and Prejudice. London: T. Egerton, 1813.
- 3.Alisher Navoiy. “Farhod va Shirin” dostoni. Toshkent: O‘zbekiston adabiyoti nashriyoti.
- 4.Alisher Navoiy. “Layli va Majnun” dostoni. Toshkent: O‘zbekiston adabiyoti nashriyoti.
- 5.<http://cyberleninka.ru/article/n/alisher-navoiy-ijodida-hukmdor-ayol-siymosi-va-ijtimoiy-hayot>
- 6.<http://journalss.org/index.php/luch/article/download/1995/1870/3743>